



KICHRAYTIRISH – ERKALASH SHAKLLARINING PARADIGMATIK MUNOSABATI

Yarqinboyeva Sayyora.

GulDU o'qituvchisi

Xudoyqulova Shoxistaxon

GulDU katta o'qituvchisi,

shoxista_xudoyqulova@mail.ru,

Muhudullayev Farrux

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10800287>

ARTICLE INFO

Received: 06th March 2024

Accepted: 07th March 2024

Published: 09th March 2024

KEYWORDS

paradigm, diminutive form, opposition, sema

ABSTRACT

In the historical morphology of the Uzbek language, the historical development of the diminutive-petting form in pure Turkish words and the changes in the sound content of some of them as forms become obsolete, as well as the cases of mutual meaning and similarity of diminutive-petting suffixes are described in this article.

Keltirilgan ilmiy farazlar o'zbek tilshunosligidagi paradigma qonuniyatlariga borib taqaladi. Dastlab paradigama nomi ostida beriladigan ta'rifga nazar tashlasak, "Umumiy belgisi asosida birlashgan va bir-birini taqozo etadigan, ammo har biri o'ziga xos belgisi bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar tizimi paradigma deyiladi. Paradigmani tashkil etuvchi birliklar paradigma a'zosi deb yuritilishi keltirib o'tilgan, ikkita a'zo, ular, asosan, bir lisoniy sathga mansub bo'lishi aytilgan. Paradigmaga kiruvchi xususiyatlarni: ya'ni boshqa a'zoni esga olishi, nutq uchun paradigma a'zolaridan biri tanlanishi, biri ikkinchisidan qaysidir xususiy belgisi orqali farqlanib turishi, bir pozitsiyada (mavqeda) kelib, bir-birini ma'lum sharoitda almashtira olishi kabi holatlar keltirgan. Aynan paradigma a'zolari orasidagi munosabat paradigmatic munosabat deyilishi ham qayd etilgan. O'zbek tilshunosligidagi kuchaytirish-erkalash otlari ham ma'lum bir sistemada tashkil topganligi paradigmatic munosabatlarni ifodalaydi.

O'zbek tilshunosligida otlarning kichraytirish-erkalash shakli va uning uslubiy tarafdin farqlanuvchi jihatlari, shuningdek, ushbu shakl yasovchilarning qo'llanish doirasi va tarixiy o'zagi haqida ilmiy organilishlar nisbatan kamroq uchraydi. Ma'lumki, kichraytirish-erkalash shakllari otlarda leksik ma'noga qo'shimcha ma'no yuklaydi, bu ma'no me'yordagi so'zga nisbatan kichiklikni ifodalagnligi uchun o'zbek tildagi norma, ya'ni paradigma qolipida o'rganilishi til me'rlariga mos keladi. Bu ma'lumot G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurovlarning "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" o'quv qo'llanmasida ham kichraytirish ma'nosida kelganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, Beg-u begchə va nokar-u sardaro' tamam zalim va fasiq edi. Bu tarafdin kichraytirish shakli alohida ma'no yuklash xususiyatiga ega, erkalash shakli alohida ma'no yuklash xususiyatiga ega.

O'zbek tilshunosligi me'yorlarida -cha shakl yasovchi qo'shimcha shaxs bildiruvchi otlardan boshqa otlarga qo'shilganda odatda kichraytirish ma'nosini beradi: tog'acha, ukacha, jiyancha, nevaracha, qizcha, yigitcha. Shaxs nomlariga qo'shilganda esa kamsitish, kesatish semasini anglatadi: Ko'l yoqlab o'zi ozg'in, ko'p gapiradigan Akbarcha mayda qadamlar bilan kelardi.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, narsa otlariga qo'shilganda ham kichraytirish ma'nosini beradi: hovuzcha, qushcha, uycha, baliqcha kabi. Misol uchun, U – [suv] qaynama beton hovuzchalar orqali yerosti quvurlariga quyilib, dala yoqalab yugura ketdi. (Sh. G'ulomov, Yorqin ufqlar) ba'zi so'zlar tarkibida – cha affiksi kichraytirish ma'nosini yo'qotib, so'z yasash xususiyatiga o'tgan va omonimlik hosil qilgan: sholcha, bog'cha, qizilcha. Jundan to'qilgan palos. Himmatga «Qani, o'tir!» dedi oshpaz, yozib qo'ygan sholchani ko'rsatib.

Bundan tashqari tilimizda tarixan kichraytirish ma'nosini bergan hozirda so'zning asosida unumsiz bir shaklga aylangan qo'shimchalar ham yo'q emas. Xususan, qadimgi turkiy tildi mavjud -ak, g'aq qo'shimchasi turdosh otlarga qo'shib kichraytirish hosil qilgan: ich-ak (ichiki azolarni anglatuvchi ichak) ovunch-aq (ovunchoq) bich-aq (pichoq) tugun-ak (tuynak-yangi tugilgan, yetilmagan qovun), bash-aq (boshog). Bu kamunum qo'shimcha hozirda juda kam so'zlarda kichraytirish ma'nosini saqlab qolgan: yo'l-ak (yo'lak), barg-ak (bargak), ip-ak (ipak), oyna-ak (oynak), cho'p-ak (cho'pak), tikan-ak (tikanak), burch-ak (burchak)-chiq affiksi ham shaxs otlariga qo'shib shakl yasagan: o'g'lan (yigit) -og'lanchiq (yigitcha).

Bugungi kunga qadar nashr etilgan ilmiy manbalarga asoslanadigan bo'lsak, -chak qo'shimchasi so'zlarga qo'shib, kichraytirish -erkalash shakli nisbatan kamroq uchraydi. Masalan: kelinchak, tugunchak. Biroq -chak qo'shimchasida so'z yasovchilik xususiyati ham mavjud. Demak, so'z asosiga qo'lganda yangi lug'aviy ma'no hosil qilishi -chak qo'shimchasining nutqiy variantining mavjudligidan dalolat beradi hamda bir vaqtning o'zida kichraytirish-erkalash ma'nosi bilan zidlanish imkoniyatiga egadir. Masalan, burchak, erinchak, kuyunchak kabi. Bu qo'shimcha qadimgi turkiy tilda -chuq shaklida uchragan va kichraytirish shaklsini hosil qilganligi ushbu qo'shimchaning fonetik jihatdan o'zgarganligidan dalolat beradi. Masalan, qop-chuq (qopchiq).

Turkiy tilshunoslikda, jumladan o'zbek tilshunosligida ma'lum bir sath yoki sohaga aloqador so'zlarning so'z boyligi hamda qo'llanilish chegarasining keng qamrovli va kamunumliligini hisobga oladigan bo'lsak, -choq affiksi ma'no jihatidan -chak qo'shimchasiga qaraganda torroq bo'lib asosan hayvonlarga qo'shiladi: toychoq, qo'zichoq. Bundan shu narsa kuzatiladiki, insonlarga nisbatan ishlatiladigan so'zlar miqdori boshqa predmet va narsalarga nisbatan mo'ldiq desak adashmashgan bo'lamiz. Bu holatni "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan ham kuzatishimiz mumkin. Chunki aksariyat so'zlar miqdori inson faoliyati bilan bog'liqdir. Agar bu qo'shimchaning kuchaytirish va erkalash ma'nolarini bir-biriga nisbatan oppozitsiyada oladigan bo'lsak, qo'shimcha kichraytirishdan ko'ra erkalashni ko'proq anglatadi, chunki qo'yning bolasini qo'zi deb aytaganimizda so'zning o'zida kichiklik ma'nosi anglashilib turibdi -choq qo'shimchasi esa, erkalashni bildiruvchi sema sifatida asosga qo'shilmoqda. Masalan, Chirog'im, sendan oldingi zootexnik ham xuddi shunday deb, qo'zilarni sovliqlardan ajrattirmagan edi.

Terminlar, ko'pincha, umumiste'mol leksikadan ma'lum bir ma'nolarining maxsuslashuvi asosida hosil bo'ladi. Masalan, [fojea], [ega], [ot], [qo'shish], [ayirish] leksemalari umumiste'mol

birlik bo'lsa, ammo ilmiy terminologiyada ham shunday leksema mavjud. Xo'sh, ularni ko'p sememali leksemaning ma'lum bir ma'nosida qo'llanishi deyish kerakmi yoki alohidami? Agar atamalar alohida leksema deb qaraladigan bo'lsa, ular umumiste'moldagi leksema bilan omonimik munosabatdami? Shu kabi o'zbek tilshunosligidagi muammoli masalalar tilshunos olimlarning ham ma'lum bir to'xtamga kelishiga yo'l qo'ymayapti.

Ma'lumki, ko'pgina omonim leksemalar aslida ko'p ma'noli leksema ma'nocidan birining boshqalaridan uzilishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, [yoz] ("fasl"), [yoz] ("tasvirlamoq") va [yoz] ("yoymoq") leksemalari aslida bir polisemantik leksemaning turli ma'nolari asosida hosil bo'lgan omonimik birliklar. Ularning etimologik ildizi bitta. Chunki bunga Mahmud Koshg'ariy lug'atidan olingan Yoy qish bila qarishni misrasini keltirish asosida amin bo'lish mumkin. Xat yozmoq birikuvidagi (yozmoq) fe'lining asl etimologik ma'nosi «fikrni qog'ozga yoymoq»dir. Ko'rinadiki, omonimlik hodisasiga turkiy tillarning dastlabki yillaridanoq o'rganila boshlaganligiga guvoh bo'lamiz.

Bundan kelib chiqib, -choq qo'shimchasi o'yinchoq so'zidagi affiks bilan shakldoshlik vazifasini bajara oladi. Aynu shu holatni tilshunoslikning qonuniyati inkor eta olmaydi. -(a)loq affiksi qiz, bo'ta, toy so'zlariga qo'shilganda erkalash ma'nosini hosil qiladi. Ba'zi o'rinlarda -cha affiksi bilan ma'nodoshlik hosil qiladi. Masalan: qizaloq- qizcha, toyloq- toycha. Ushbu affiks o'rin-joy otlarini hosil qiluvchi -loq bilan omonim bo'laoladi: o'tloq, qumloq. Misol: yamyashil o'tloqlarda toyloqlar ko'rinardi.

O'zbek tilida kichraytirish va erkalash qo'shimchalari tarixan shakllanib, u turli davrlarda turli fonetik o'zgarishlarga uchragan holda, ba'zi shakllarning eskirishi natijasida o'zbek tilida yasovchilik xususiyatini yo'qota borganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, O'zbek tilidagi kichraytirish - erkalashshakllari orasidagi ma'noviy farqlar tarixan mavjud bo'lib, bu holatni qadimgi turkiy til yodnomalar va, shuningdek, keyingi davr tilida ham ko'rishimiz mumkin. Keltirilgan yuqoridagi shakllar sof turkiy tillarga mansub bo'lib, turkiy tiilarda ham, jumladan, o'zbek tilida kichratirish-erkalash shakllarining tarixan keng iste'molda bo'lganligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar :

1. Xudoyqulova, S., & Dehqonova, L. (2021). ABDULLA QODIRIYNING SO 'Z QO 'LLASH MAHORATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 589-595.
2. Ерматов, И., & Дехконова, Л. (2021). Об аффиксах, заимствованных из таджикско-персидского в узбекский язык. *Общество и инновации*, 2(2/S), 462-469.
3. Abdullayevna, D. L. (2024). Arab yozuvidagi harflarning she'riyatdagi jilosi. *Journal of Universal Science Research*, 2(2), 25-28.
4. Dexkanova, L. (2023). ARABCHA KO 'PLIK SHAKLLARINING O 'ZBEK TILIDA QO 'LLANILISHI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 235-238.
5. Jumanazar, A., & Lutfiniso, D. (2022). Inguistic Unity in Uzbek Linguistics Some Comments about the form. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 688-692.

6. Туйчиева, З. Х. (2022). ПРОЯВЛЕНИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ МОТИВОВ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(4), 244-248.
7. Tuychieva, Z. (2019). PRINCIPLES OF DIFFERENTIATING OF GENDERS IN UZBEK ANTHROPOLOGY. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(1), 75-82.
8. Khamrokulovna, T. Z. (2018). Literature revealing the truth of life. *Проблемы педагогики*, (7 (39)), 77-78.
9. Тўйчиева, З. (2023). АБДУЛЛА ҚАҲҲОРНИНГ “САРОБ” РОМАНИДА ИБОРАЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ. *Journal of Universal Science Research*, 1(4), 304-307.
10. Kholbekova, M., & Tuychiyeva, Z. Articles and expressions in Hamid Olimjon's works. In *Current issues of Uzbek linguistics. Republican scientific-theoretical conference materials (Vol. 3)*.
11. Sirojiddin, M. (2023). О ‘ЗБЕК ТИЛИДА МАҚСАД МА’НОСИ СО ‘ЗЛАР ОРҚАЛИ ИФОДАЛАНИШИ. *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 20-25.
12. Абдуллаев, Ж. Х. (1994). Узбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари.
13. Абдуллаев, Ж. (2021). ТИЛ ҚУРИЛИШНИНГ АСОСИЙ БИРЛИКЛАРИ АКАДЕМИК АЗИМ ҲОЖИЕВ ТАЛҚИНИДА 1-мақола Морфеманинг моҳияти. *Farg'ona davlat universiteti*, (4), 28-28.
14. Мураткулов, А. Т. (2023, June). ОРГАНИЗОВАТЬ УРОКИ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS"* (Vol. 2, No. 7).
15. Мураткулов, А. Т., & Мураткулова, М. А. (2023). АЛИШЕР НАВОЙИ АСАРЛАРИДА АРАБ, ФОРС ТИЛИДАН ЎЗЛАШГАН СЎЗЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ. *PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION*, 2(8).
16. Мураткулов, А. Т., & Мураткулова, М. А. (2023, June). ОБРАЗ ЛУКМАН ХАКИМА В «КИСАС УЛЬ-АНБИЯ». In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS"* (Vol. 2, No. 7).
17. Abduhakimovich-Guliston, M. K. (2021, April). LEXICAL AND SEMANTIC FEATURES OF ARCHAIC WORDS IN THE WORKS OF GHAFUR GHULAM AND ABDULLAH QAHNOR. In *Archive of Conferences (Vol. 23, No. 1, pp. 38-49)*.
18. Sharipov, F. G., & Sharipov, J. G. (2020). THE INITIAL PERIOD OF FORMATION OF THE UZBEK SCIENTIFIC LINGUISTICS. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(4), 25-31.
19. Sharipov, F. G. (2021). Improvement of classification of parts of speech in modern Uzbek morphology. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 455-465.
20. Латипов, М. М., & Тожибоев, У. У. (2022). ЗЕМЕЛЬНЫЕ И ВОДНЫЕ РЕФОРМЫ, ОСУЩЕСТВЛЕННЫЕ В КОНЦЕ XIX НАЧАЛЕ XX ВЕКА В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ. *Экономика и социум*, (10-2 (101)), 417-419.
21. Латипова, М. М. (2022). МУЛОҚОТНИНГ ШАХСЛАРАРО МУНОСАБАТЛАРДАГИ АХАМИЯТИ. *Scientific Impulse*, 1(4), 1765-1768.